

ANDIJON VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI



2019 yil yakuni bo'yicha


Boshlang'ich ta'lim – bu inson hayotidagi ilk ta'limning boshlanishidir. Inson hayotidagi birinchi ta'ssurot va bilimlar maktabgacha ta'limda shakllanib, keyinchalik butun umr davomida saqlanib qoladi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida boshlangan islohatlar maktabgacha ta'limdan boshlab to oily ta'limgacha qamrab oladi. Hozirgi kunda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yosh avlodni yetuk ba barkabol bo'lib shakillanishida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hozirgi kundagi ahamiyati katta.

Andijon viloyatida 2019 yil yakuni bo'yicha 657 ta yuridik maqomga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) faoliyat ko'rsatgan. Ulardan 128 tasini nodavlat ta'lim tashkilotlari hisoblanadi. Jami maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 305 tasi shahar joylarda, qolgan 352 tasi qishloq joylarda joylashgan. O'tgan 2018 yilga nisbatan MTT soni 109 taga ortgan. Ularda passport bo'yicha guruhlar soni 4035 taga teng bo'lib, amalda 4319 tani tashkil etadi. O'rinlar soni 90456 bolalarga mo'ljallangan.

Andijon viloyati bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni, (birlik)



Andijon viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ularda tarbiyalanuvchi bolalar soni dinamikasi

	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni (birlik)	460	461	456	456	548	657
Tarbiyalanuvchi bolalar soni (ming kishi)	46,5	53,1	58,4	58,4	78,7	111,5

Ma'lumot uchun




Maktabgacha ta'lim tashkiloti – belgilangan davlat me'yorlariga va maktabgacha ta'lim muassasasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalash, o'qitish, ularga qarab turish va ularni parvarish qilishni hamda sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

2019 yil yakuni bo'yicha viloyatdagi 657 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jami 111,5 ming nafar bolalar tarbiyalanmoqdalar. Ularning 58,3 ming nafari o'g'il bolalar, qolgan 53,2 ming nafari qizchalar tashkil etadi. Tarbiyalanuvchi bolalar soni o'tgan 2018 yilga taqqoslaganda 32,8 ming nafarga ortgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolalar soni (birlik)

■ Jami bolalar ■ Ulardan qizlar



2019 yil yakuni bo'yicha viloyatdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (yuridik maqomga ega) gi bolalar qamrovi 44,1 % ni tashkil etdi. Ulardan o'g'il bolalar soni 52,3 % ni, qizlar 47,7 % ni tashkil etdi.



O'g'il bolalar
52,3%

Qiz bolalar
47,7%



**Andijon viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotidagi
bolalarni soni va qamrovi**

	Bolalar soni		Bolalar qamrovi, %
	Shahar joylarda	Qishloq joylarda	
Viloyat bo'yicha	53618	57860	44,1
Andijon shahar	15114	x	48,0
Xonobod shahar	1717	x	61,0
tumanlar			
Oltinko'l	3928	2555	44,8
Andijon	3888	2234	28,3
Baliqchi	1316	6308	46,4
Bo'ston	2036	1735	63,3
Buloq boshi	533	3654	37,8
Jalaquduq	2956	3528	45,7
Izboskan	2990	7161	50,1
Ulug'nor	695	1570	48,1
Qo'rg'ontepa	2689	4629	43,5
Asaka	4498	6943	41,6
Marxamat	2835	2381	36,9
Shaxrixon	3715	7057	41,1
Paxtaobod	2363	5404	47,1
Xo'jaobod	2345	2701	57,0



Ma'lumot uchun




Bolalarni maktab bilan qamrab olinishi

- maskur ko'rsatkich maktabgacha ta'lim tashkilotida ro'yhatda turgan bolalar sonini (aholishunoslik statistikasining joriy hisob-kitoblari asosida ma'lumotlari bo'yicha hisoblangan bolalar sonini) umumta'lim muassasalarida o'qiyotgan 6 yoshdagi o'quvchilarisiz bolalar soniga nisbatini ifodalaydi

Bolalarni maktabgacha talim bilan qamrab olinishi o'tgan 2018 yil bilan taqqoslanganda viloyat bo'yicha bu ko'rsatkich 2,2 marotaba ortgan.

Andijon viloyati bo'yicha bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish dinamikasi







Andijon viloyatidagi 640 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar o'zbek tilida, 57 tasida rus tilida, 1 tasida boshqa tillarda olib boriladi. O'zbek tilida mashg'ulot o'tkazuvchi bolalar soni 107159 nafar, rus tilida mashg'ulot o'tkazuvchi bolalar soni 4279 nafar va boshqa tillarda mashg'ulot o'tkazuvchi bolalar soni 40 nafarni tashkil etadi.

Andijon viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2019 yil yakuni bo'yicha 9431 nafar pedagog xodimlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning 9044 nafarini ayollar tashkil etadi. Pedagog xodimlarning 2298 nafari (24,4%) oiliy ma'lumotli, qolgan 7133 nafari (75,6%) o'rta ma'lumotga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagog xodimlarning ish staji






Andijon viloyatidagi 657 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 643 tasi vodoprovod suvi bilan ra'minlangan, 180 tasi markazlashgan va 477 tasi yakka tartibdagi isitish tizimiga ulangan, 250 tasida kanalizatsiya mavjud. 517 ta maktabgacha ta'lim tashkilotining binosi na'munaviy tipdagi bo'lsa, 140 tasi moslashtirilgan binoda faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 104 tasi kapital ta'mirga muhtoj bo'lib, 4 tasi avariya holatida.



Andijon viloyatida 2019 yil yakuni bo'yicha 128 ta **nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** faoliyat ko'rsatgan. Ular viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik maqomga ega bolgan MTT larining 19,5 % ni tashkil etadi. Nodavlat MTT larida 10002 nafar bolalar tarbiyalanmoqda. Ular viloyatdagi jami tarbiyalanuvchi bolalarning 9,0% ni tashkil etadi.



Nodavlat ta'lim tashkilotlarida
923 nafar pedagog xodimlar
bolalarga tarbiya berib
kelmoqdalar. Ulardan 904 nafarini
ayollar tashkil etadi. Jami pedagog
xodimlarning 253 nafari (27,4%)
oily va qolgan 670 nafari (72,6%)
o'rta ma'lumotga egadirlar.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (74 224-82-69)